OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA IRODA AZAMATOVNA

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI TALABALARNING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 378.015.31:811.1111'243

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Sharipova Iroda Azamatovna
Texnika oliy ta’lim muassasalarida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi orqali talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirish…….. 3

Шарипова Ирода Азаматовна
Совершенствование рефлексивной компетенции студентов технических высших образовательных учреждений через интегрированную образовательную технологию……... 25

Sharipova Iroda Azamatovna
Enhancing students’ reflective competence in technical higher education institutions through integrated educational technology……... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications..... 56

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA IRODA AZAMATOVNA

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI TALABALARNING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Ped11310 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.bimm.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Bazarova Umida Mamurjanovna** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Yuzlikayev Farid Rafailovich** pedagogika fanlari doktori, professor
	Taylanova Shohida Zayniyevna pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "22" 10 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 10095, Toshkent shahri Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3 uy. Tel.: (99871) 202-01-20; faks: (99871) 202-01-21, e-mail: info@bimm.uz)

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (43 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095,Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20, e-mail: info@bimm.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "8" 10 kuni tarqatildi.
(2026-yil "8" 10 dagi 16 raqamli reestr bayonnomasi).

Sh. Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

A.S.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

Ya.U.Ismadiyorov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda tajribaviy ta'limning samaradorligini oshirish, dual ta'lim jarayonida talabalarning faol ishitokini ta'minlash, tanqidiy fikrlash, innovatsionlik va kasbiy muhandislik identifikatsiyasini refleksiya vositasida takomillashtirish muhim ustuvorlik kasb etmoqda. Ayniqsa, muhandislik ta'limida talabalar real hayotdagi ochiq va murakkab muammolarni tushunishi, axborotlarni izlab topishi, unga yechim taklif qilishi, jamoada hamkorlikda ishlay olishi, o'z qarorlarini baholay olishini ko'zda tutadigan muammoli chaqiriqlarga asoslangan o'qitish (Challenge-Based Learning - CBL) tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. AQSh, Yaponiya, Singapur, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarda STEAM-ta'limi doirasida muhandislik va fizika kurslarida neyrolingvistik dasturlashtirish (NLP) texnologiyasiga asoslangan mobil refleksiya ilovasidan foydalanish, natijaga asoslangan ta'lim (Outcome-Based Education), konstruktiv moslashtirish (Constructive Alignment) va refleksiv fikrlashning integratsiyaga asoslangan o'qitishni jadallashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda muhandislik ta'limida chaqiriqqa asoslangan ta'limni joriy etish, refleksiya asosida tajribaviy ta'limni tashkil etish, Q-sort metodi asosida fanlararo kompetensiyalarni hamda muhandislik dizaynida refleksiv va texnik kompetensiyalarni loyihalashga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, talabalarda loyihaga asoslangan ta'lim modeli orqali transversal kompetensiyalarni takomillashtirish, muammoni qo'yish jarayonida scaffolding va refleksiyaning ta'sirini aniqlashtirish, refleksiv topshiriqlarni ishlab chiqish orqali texnik kompetensiyalarni ta'lim dasturiga integratsiyalash, ishga yo'naltirilgan dasturlarda refleksiv amaliyotning rivojlanishi, sun'iy intellekt kurslarida chat-bot yordamida o'z-o'zini boshqarishni qo'llab-auvvatlash va onlayn hamkorlikdagi refleksiyani integratsiyalash alohida dolzarblik kasb etmoqda. Shuningdek, talabalarning sun'iy intellektga oid axloqiy refleksiyasini baholash shkalasini ishlab chiqish va validligini ta'minlash, refleksiv yondashuvga asoslangan innovatsion ta'lim metodlarini ishlab chiqish muhim ustuvorlikka ega bo'lmoqda.

Mamlakatimizda zamonaviy bilimlarga ega va ma'naviy dunyoqarashi keng, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning yangi sifat bosqichiga erishish, oliy ta'limning xalqarolashuvi va integratsiyasini jadallashtirish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga muhim ustuvorlik qaratilmoqda. "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish"[1] strategik yo'nalish sifatida belgilangan. Bu esa, talabalarning refliksiv kompetensiyasini takomillashtirishning didaktik jihatlarini aniqlashtirish va ilmiy nuqtai nazardan asoslash, talabalarning refleksiv kompetensiyasini integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi asosida

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarning aniqlash hamda mazkur jarayonni amalga oshirishning didaktik modelini takomillashirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mavzuga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va taxnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan hamda texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat, demokratik davlatni ijtimoiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirish masalasining chet tilni o‘qitish, kasbiy kompetentlikni takomillashtirish, pedagogik texnologiyalarni joriy etish va kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan turli jihatlari tadqiq etilgan. Xususan, J.Jalolov, T.Sattorov, F.Yuzlikayev, L.Axmedova, G.Maxkamova, Sh.Ashurov, I.Tuxtasinov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, talabalarda umummadaniy va umumkasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish, o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritib berilgan. Refleksiv kompetensiyalarning metodologik asoslari esa, N.To‘xtayeva, M.Karimova, Sh.Yo‘ldaoshev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida ta’lim mazmunini integratsiyalash, fanlararo aloqadorlikni ta’minlash, kasbiy ta’lim jarayonini takomillashtirishning nazariy asoslari S.Batishev, P.Atutov, M.Maxmutov, V.Maksimova, O.Fedorova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, P.Atutov, S.Batishev va M.Maxmutovning tadqiqotlarida umumiy o‘rta va kasbiy ta’lim mazmunining o‘zaro aloqadorligi, fanlararo integratsiya hamda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari tadqiq etilgan. V.Maksimova va O.Fedorovaning tadqiqotlarida fanlararo integratsiya va refleksiyaning ta’lim mazmuni hamda ta’lim oluvchilarning intellektual rivojlanishidagi ahamiyati ochib berilgan. Ta’limning metodologik asoslari, ilmiy bilish, nazariy va empirik bilimlarning o‘zaro munosabati hamda ilmiy-tadqiqot metodologiyasi kabi masalalar refleksiv yondashuv bilan aloqadorlikda S.Goft, G.Ruzavin, A.Ursul kabi olimlar tominidan o‘rganilgan.

Xorijlik olimlardan Donald A. Schön texnik va muhandislik ta’limida bo‘lajak mutaxassislarning faoliyat jarayonidagi refleksiyasi (reflection-in-action) va faoliyatdan keying refleksiyasi (reflection-on-action); David A.Kolb tajribaviy ta’lim (Experiental Learning Theory) sikli orqali tajriba, refleksiya, konseptuallashtirish va amaliy nazoratni yaxlit o‘quv jarayoniga integratsiyalash; Jack Mezirov transformativ ta’lim (transformative learning) va tanqidiy refleksiya (critical reflection) konsepsiyasi asosida talabalarda refleksiv kompetensiyani takomillashtirish; Robin S. Adams, Jennifer Turns va Cynthia J.Atman muhandislik ta’limida refleksiv amaliyot; Joachim Walther, Nadia Kellam, Tracie Costantino va Bonnie Cramondlar texnik ta’limda integrative o‘qitish va refleksiyaning o‘zaro aloqadorligini; Renate Klassen, Femike Middelhoek va Nina Bohmlar interdisciplinar ta’lim hamda o‘quv va kasbiy faoliyatdagi turli “kontekstlar” orasidagi bilim, tajriba va kompetensiyalarni ko‘chiirish (boundary crossing) ko‘nikmalari; Paul A. Asunda va Sharita Warelar STEM ta’lim va muhandislik dizaynini intagratsiyalash; Hoang Thi Hong va Nguyen Thi Hanglar raqamli simulyatsiya, loyihaga va kompetensiyaga asoslangan ta’limni baholashning refleksiv sikllarni bilan uyg‘unigini ta’minlash; John Trimmer texnika yo‘nalishi talabalarining haftalik refleksiv jurnallardan foydalanish masalasini tadqiq etishgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, bizgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarda refleksiv kompetensiyaning ayrim nazariy-metodologik jihatlari, mazkur fenomenning kasbiy kompetentlik bilan bog‘liqligi va chet til ta’limini amalga oshirishga doir ba’zi imkoniyatlari o‘rganilgan bo‘lsada, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida refleksiv kompetensiyani aynan integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi asosida takomillashtirishning nazariy-pedagogik va didaktik asoslari tizimli tadqiq etilmagan. Ana shu sababli texnika oliy ta’lim muassasalarida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi orqali talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy-didaktik asoslarini takomillashtirishga doir maxsus ilmiy izlanishlar olib borish lozim, degan xulosaga kelindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasning “Tog‘-kon sanoatida qo‘llaniladigan atamalarning izohli lug‘atini tuzish” nomli ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi texnika oliy ta’lim muassasalarida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi orqali talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

talabalarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik va didaktik jihatlarini aniqlashtirish va ilmiy nuqtayi nazardan asoslash;

talabalarning refleksiv kompetensiyasini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

talabalarning refleksiv kompetensiyasini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi vositasida rivojlantirishning didaktik modelini takomillashtirish;

talabalarning refleksiv kompetensiyasini rivojlanganlik darajasini aniqlash mezon va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish hamda eksperimental ish samaradorligini baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni belgilangan bo‘lib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat texnika universitetining Olmaliq filiali, Nukus davlat texnika universiteti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining 550 nafar talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi vositasida texnika oliy ta’lim muassasasi talabalarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda texnika oliy ta’lim muassasalaridagi ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, sotsiometrik (so‘rovnoma, online-test), pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik va didaktik asoslari mazkur fenomenning mazmun-mohiyati, strukturaviy komponentlari hamda rivojlanish jarayonining kognitiv, motivatsion, kreativ, refleksiv, shaxsiy-faoliyatli tarkibiy qismlarining o‘zaro integrativ aloqadorligini ilmiy jihatdan yaxlit tizimlashtirish orqali aniqlashtirilgan;

talabalarning refleksiv kompetensiyasini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi asosida rivojlantirishning tashkiliy, refleksiv-pedagogik shart-sharoitlari tajribaga asoslangan o‘qitish konsepsiyasi asosida fanlararo ta’lim mazmuni integratsiyasini ta’minlash, muammoli-amaliy va loyiha faoliyati bo‘yicha talabalarning o‘quv faoliyatini jadallashtirish, refleksiv tahlil hamda o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi konstruktiga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

talabalarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish modelining mazmunli-jarayonli bloki integratsiyalashgan ta’lim mazmunini amaliy-kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, loyihaviy va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish, faoliyat natijalari diagnostikasi va korrektsiyasi kabi uzviy pedagogik jarayonlarni tayyorlov, amaliy, yakuniy bosqichlar bo‘yicha amalga oshirish tuzilmasiga muvofiq takomillashtirilgan;

talabalarda refleksiv kompetensiyaning rivojlanganlik darajasini aniqlashning diagnostik tizimi kognitiv, faoliyatli, shaxsiy-refleksiv mezonlar va ularga mos gipotetik darajalarga muvofiq talabalarning o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash, korreksiyalash qobiliyatlarini kompleks baholash instrumentariysini maqsadli loyihalash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Ingliz tilini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari asosida kasbga yo‘naltirib o‘qitish” nomli o‘quv qo‘llanma (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug‘i, №250696 raqamli nashr ruxsatnomasi) chop etilgan;

“Texnik matnlar bilan ishlash orqali refleksiv tahlil ko‘nikmalarini takomillashtirish” nomli uslubiy ko‘rsatma chop etilgan;

talabalarning integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi haqidagi bilimlarni boyitishga qaratilgan Teaching ESP (English for specific purposes) based on integrated educational technologies to students” (DGU №36593) dasturi ishlab chiqilgan;

integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi orqali texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining refleksiv kompetensiyasini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida qo‘llangan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalar vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “intagratsiyalashgan ta’lim”, “integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari”, “refleksiya”, “refleksiv amaliyot”, “tajribaga asoslangan ta’lim”, “refleksiv kompetensiya” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatining yoritib berilganligi, texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning zaruriyatining asoslab berilganligi, integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va refleksiv kompetensiyani takomillashtirishga doir salohiyatining ilmiy asoslanganligi, texnika oliy ta’lim muassasasi talabalarining refleksiv kompetensiyasini takomillashtirish tuzilmasi, komponentlari va funktsiyalarining aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ingliz tilini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari asosida kasbga yo‘naltirib o‘qitish orqali texnika oliy ta’lim muassasasi talabalarining refleksiv kompetensiyasini takomillashtirish bosqichlari, yuzaga keladigan qiyinchiliklarning oldini olish yo‘llarining ishlab chiqilganligi, texnik matnlar bilan ishlash orqali refleksiv tahlil ko‘nikmalarini takomillashtirish shakl, metod va vositalarining samaradorligini real ta’lim sharoitlarida sinovdan o‘tkazilganligi hamda talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirish modelining mazmunli-jarayonli bloki va talabalarda refleksiv kompetensiyaning takomillashganlik darajasini aniqlashning diagnostik tizimining takomillashtirilganligi, talabalarning integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi haqidagi bilimlarni boyitishga qaratilgan Teaching ESP (English for specific purposes) based on integrated educational technologies to students” dasturining yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi orqali talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar:

talabalarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik va didaktik asoslarini mazkur fenomenning mazmun-mohiyati, strukturaviy komponentlari hamda rivojlanish jarayonining kognitiv, motivatsion, kreativ, refleksiv, shaxsiy-faoliyatli tarkibiy qismlarining o‘zaro integrativ aloqadorligini ilmiy jihatdan yaxlit tizimlashtirish orqali aniqlashtirishga doir takliflar texnika oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan “Ingliz tilini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari asosida kasbga yo‘naltirib o‘qitish” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-

son buyrug‘i, 250696 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish tuzilmasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

talabalarning refleksiv kompetensiyasini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi asosida rivojlantirishning tashkiliy, refleksiv-pedagogik shart-sharoitlarini tajribaga asoslangan o‘qitish konsepsiyasi asosida fanlararo ta’lim mazmuni integratsiyasini ta’minlash, muammoli-amaliy va loyiha faoliyati bo‘yicha talabalarning o‘quv faoliyatini jadallashtirish, refleksiv tahlil hamda o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi konstruktiga ustuvorlik berish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan 8624042782. “Qizilqum hududi karerlarida konchilik ishlarini olib borishda ekologik xavfsizlikni ta’minlash” (2024 - 2025 yy.) amaliy loyhasining talabalarda ekologik xavfsizlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda refleksiv texnologiyalardan foydalanish qisimini amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2025-yil 2-dekabrdagi 02/01-01-541-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning refleksiv kompetensiyasini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi asosida rivojlantirish amaliyotini takomillashtirishga xizmat qilgan;

talabalarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish modelining mazmunli-jarayonli blokini integratsiyalashgan ta’lim mazmunini amaliy-kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, loyihaviy va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish, faoliyat natijalari diagnostikasi va korrektsiyasi kabi uzviy pedagogik jarayonlarni tayyorlov, amaliy, yakuniy bosqichlar bo‘yicha amalga oshirish tuzilmasiga muvofiq takomillashtirishga doir takliflar IZ-2021020114. “Uran konlarini yer ostida tanlab, eritmaga o‘tkazishda ma’dan qatlamini ochishning yangi texnologiyasini yaratish” (2024 - 2025 yy.) innovatsion loyihasining talabalarning madan qatlamlarini ochishga doir xorijiy terminlar bilan ishlashga o‘rgatish qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2025-yil 2-dekabrdagi 02/01-01-541-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishda xorijiy atamalar ustida ishlash samaradorligini oshirishga erishilgan;

talabalarda refleksiv kompetensiyaning rivojlanganlik darajasini aniqlashning diagnostik tizimini kognitiv, faoliyatli, shaxsiy-refleksiv mezonlar va ularga mos gipotetik darajalarga muvofiq talabalarning o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash, korreksiyalash qobiliyatlarini kompleks baholash instrumentariysini maqsadli loyihalash orqali takomillashtirishga doir takliflar texnika oliya ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan “Ingliz tilini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari asosida kasbga yo‘naltirib o‘qitish” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug‘i, №250696 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishda diagnostik vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta Respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy-uslubiy ish chop etilgan. Shulardan 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston

Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola: 4 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida texnika yo‘nalishi talabalarida refleksiv kompetensiyasi takomillashtirishga yo‘naltirilgan nazariy yondashuvlar, didaktik tamoyillar va psixologik-pedagogik konsepsiyalar majmui keltirilgan. Bu kompetensiya o‘z bilimlari va faoliyatini tahlil qilish, baholash va tuzatish, shuningdek, mustaqil ta’lim strategiyasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Mazkur asoslar fanlararo integratsiya, refleksiv kompetensiyasini takomillashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, o‘z-o‘zini anglash va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonlarini faollashtirish tamoyillariga tayanadi.

O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitish tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Bu jarayonda chet tillarni mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalab o‘qitish orqali talabalarda refleksiv fikrlash, o‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida til va kasbiy bilim uyg‘unligiga asoslangan yangi o‘quv dasturlari, baholash mezonlari va zamonaviy metodikalar joriy etilmoqda. Jumladan, Open-pit Mining, Mining Surveying kabi fanlarning ingliz tilida o‘qitilishi talabalar uchun soha terminologiyasini chuqur o‘zlashtirish imkonini yaratmoqda.

TESOL, RELO, British Council kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda chet tilini o‘qitishda kommunikativ, vazifaviy va refleksiv yondashuvlar keng joriy etilmoqda. Bu jarayon talabalarning kompetensiyalarini chuqurlashtirish va ularni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Refleksiv kompetensiya talabaning kasbiy o‘sishi, mustaqil fikrlashi, o‘z faoliyatini tahlil qila olishi va uni amaliyotda qo‘llay olishiga asos bo‘ladi. Bu integratsiyalashgan, innovatsion va fanlararo yondashuvlar bilan chambarchas bog‘liq.

Refleksiv kompetensiya bu - shaxsning o‘z bilimi, tajribasi va xatti-harakatlarini ongli ravishda tahlil qilish, baholash, xulosalar chiqarish hamda kelgusidagi faoliyatni takomillashtirishga yo‘naltirilgan qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi integrativ kasbiy sifatdir. Refleksiv kompetensiya

talabaning o‘z o‘quv va kasbiy faoliyatini anglash, o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o‘z-o‘zini baholash hamda o‘z faoliyatini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish jarayonida namoyon bo‘ladi. Ushbu kompetensiya talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, o‘z faoliyatiga mas’uliyat bilan qarash va kasbiy rivojlanishga intilish kabi muhim sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi orqali talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirish bu – turli fanlararo bilimlar, kasbiy mazmun va amaliy faoliyatni ongli ravishda tahlil qilish, baholash, xulosalar chiqarish hamda o‘z faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan refleksiv ko‘nikmalarni tizimli ravishda rivojlantirish jarayonidir.

Ta’lim tizimi talabalardan mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va o‘z-o‘zini baholash kabi refleksiv kompetensiyalarni talab qiladi. Mazkur kompetensiyalarni takomillashtirishda integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Ular fanlararo aloqalar va raqamli muhit orqali talabalarning bilim va refleksiv salohiyatini rivojlantiradi. Chet tillarni boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lab o‘qitish texnika oliy o‘quv yurtlarida ta’lim mazmunini boyitadi.

Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

talabalarning dunyoqarashini kengaytirish va ularning ko‘p tilli kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish;

fanlararo bilim va amaliy ko‘nikmalarni integratsiyalash orqali ichki motivatsiyani oshirish;

kasbiy va lingvistik faoliyatda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish.

Chet tillar va mutaxassislik fanlari integratsiyasi doirasida quyidagi tamoyillar ajratib ko‘rsatiladi. Shuningdek, ta’lim samaradorligini oshirishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi: onglilik va faollik, faoliyatga yo‘naltirilganlik, kommunikativlik, integrallik, madaniyatlararo yondashuv. Bu tamoyillar refleksiv kompetensiyaning shakllanishiga zamin yaratadi.

Bir qator olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilayotgan muammoning ayrim jihatlari ko‘rib chiqilgan: refleksiya va refleksiv faoliyatning psixologik asoslari A.V.Karpov, V.V.Davidov, A.N.Leontev tadqiqotlarida yoritilib, ular tomonidan refleksiya shaxs faoliyatini anglash, o‘z harakatlarini tahlil qilish va faoliyatni takomillashtirishning muhim mexanizmi sifatida izohlangan; refleksiv kompetensiyaning pedagogik mazmuni V.A.Slastyonina, I.A.Zimnyaya, A.K.Markova tadqiqotlarida asoslanib, ushbu olimlar tomonidan refleksiv kompetensiya shaxsning kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida talqin etilgan; kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limni tashkil etish masalalari N.F.Talizina, E.F.Zeer, O.Ye.Lebedev ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilib, ular tomonidan ta’lim natijalarini kompetensiyalar orqali ifodalash zarurligi asoslab berilgan.

O‘zbek olimlari tomonidan ham ushbu muammoning ayrim jihatlari o‘rganilgan: refleksiv kompetensiyani takomillashtirish va shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayonlari N.A.Muslimov, R.X.Jo‘rayev, O‘.N.Nishonaliyeva tadqiqotlarida yoritilib, ular tomonidan kasbiy ta’lim jarayonida refleksiv faoliyatni tashkil etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan; integratsiyalashgan ta’lim

texnologiyasini qo‘llashning didaktik imkoniyatlari B.R.Adizov, O‘.Q.Tolipov, N.H.Sayidahmedov, R.G.Safarova ishlarida ko‘rib chiqilib, ushbu olimlar tomonidan fanlararo integratsiya asosida ta’lim samaradorligini oshirish masalalari atroflicha yoritilgan.

Mazkur olimlarning ilmiy ishlari refleksiv kompetensiyani shakllantirish, integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalarini joriy etish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muammosining nazariy-metodologik asoslarini yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, texnika oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitish jarayonida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi asosida talabalarning refleksiv kompetensiyasini tizimli ravishda takomillashtirish masalasi yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan bo‘lib, bizning tadqiqotimiz ushbu yo‘nalishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Integratsiyalashgan ta’limni samarali joriy etish uchun o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, o‘quv topshiriqlarini bosqichma-bosqich shakllantirish va qulay psixologik muhit yaratish muhim hisoblanadi. Baholash mezonlari sifatida qadriyatli, tahliliy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar asos qilib olinmoqda. Oliy ta’limda chet tillarni kompetensiyaviy yondashuv asosida, mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalab o‘qitish ayniqsa texnika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun dolzarbdir. Bu yondashuv ularning refleksiv kompetensiyasini, ya’ni o‘z o‘quv faoliyatini ongli tarzda tahlil qilish, baholash va takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Refleksiv kompetensiya tamoyillari, talabalarning refleksiv kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish jarayoni bir qator muhim pedagogik tamoyillarga asoslanadi. Bunday tamoyillar refleksiv faoliyatni samarali tashkil etish, talabalarning mustaqil fikrlashini takomillashtirish hamda kasbiy faoliyatga ongli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Onglilik va faollik tamoyili talabalarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishini, o‘z bilim va ko‘nikmalarini ongli ravishda o‘zlashtirishini hamda o‘z faoliyatini tahlil qilishga intilishini nazarda tutadi.

Ijodiy salohiyatni shakllantirish tamoyili talabalarning ijodiy fikrlashini qo‘llab-quvvatlash, muammoli vaziyatlarga yangicha yondashuvni shakllantirish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Ushbu tamoyil refleksiv faoliyat jarayonida yangi g‘oyalarni ilgari surish va ularni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Kommunikativ yo‘nalish tamoyili talabalarning o‘z fikrini aniq va asosli bayon etish, o‘zaro muloqot jarayonida fikr almashish hamda refleksiv xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyil ayniqsa chet tilini o‘qitish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy yo‘nalish tamoyili talabalarning jamiyat va madaniyat bilan bog‘liq bilimlarini rivojlantirish, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritish hamda turli madaniy qadriyatlarni anglash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyil talabalarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishga yordam beradi.

Til va madaniyatni o‘rganish tamoyili chet tilini o‘rganish jarayonida til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olishni nazarda tutadi. Mazkur tamoyil talabalarning til o‘rganish jarayonida refleksiv fikrlashni rivojlantirish, til

vositalaridan to‘g‘ri foydalanish hamda madaniy muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur tamoyillar o‘zaro uzviy bog‘liq holda refleksiv kompetensiyani takomillashtirish jarayonining izchilligini ta’minlaydi hamda integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi asosida talabalarning refleksiv kompetensiyasini samarali takomillashtirishga xizmat qiladi.

ESP va CLIL yondashuvlari asosida chet tilini maxsus fanlar bilan uyg‘unlikda o‘qitish talabalarning kasbiy bilimlarni real kontekstda o‘zlashtirishiga yordam beradi. A.V.Sepilova va M.M.Bajutina tomonidan ishlab chiqilgan model asosida til va kasbiy mazmun integratsiyasi texnik yo‘nalishlar uchun samarali usul hisoblanadi. Quyida bu olimlarning chet tilini mutaxassislik fanlari bilan integratsiya qilish haqidagi qarashlari berilgan:

A.V.Sepilovaning fikriga ko‘ra, kompetent yondashuv talabalarning texnik til ko‘nikmalarini professional matnlar va loyiha ishlari orqali shakllantiradi.

M.M.Bajutina shunday yozgan edi: Fonetikani fanga integratsiya qilish orqali talabalar professional kontekstlarda amaliy mashg‘ulotlar orqali tilni o‘rganadi.

Olimlarning refleksiya va kompetentlik haqidagi ilmiy qarashlari asosida refleksiv kompetentlik shaxsning o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish va takomillashtirish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlandi. Shundan kelib chiqib, quyidagi mualliflik ta’rifini berish mumkin:

“Refleksiv kompetensiya” - bu shaxsning o‘z bilimlari, kasbiy faoliyati, xatti-harakatlari va kommunikativ jarayonlarini mustaqil tahlil qilish va baholash, shuningdek, mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish orqali o‘zini o‘zi rivojlantirishga qaratilgan integral kasbiy sifatlar va refleksiv fikrlash ko‘nikmalari majmuidir. Chet tilini o‘qitishda integratsiyani cheklovchi muammolar – motivatsiyaning pastligi, kasbiy kontekstga mos materiallar yetishmasligi, talabalar til darajasidagi farqlar va metodik yondashuvlarning yetarli emasligi bilan bog‘liq. Bu muammolarni bartaraf etish uchun individual yondashuv, refleksiv topshiriqlar, CLIL va ESP asosidagi metodikalar, hamda real kasbiy vaziyatlarga asoslangan o‘quv materiallaridan foydalanish tavsiya etiladi. Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari esa refleksiv kompetensiyani takomillashtirish orqali talabalarning tahliliy va ijodiy salohiyatini yuksaltiradi.

Dissertatsiyaning **“Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi orqali refleksiv kompetensiyani takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida ta’lim tizimi va jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi uchun dolzarb bo‘lgan bo‘lajak mutaxassislarda refleksiv fikrlashni takomillashtirish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘quv faoliyatini ongli ravishda baholash hamda shaxsiy va kasbiy rivojlanishni rejalashtirirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi takomillashtirilgan model mazmuni bayon etilgan. Ingliz tilini konchilik va metallurgiya fanlari bilan integratsiyalab o‘qitish refleksiv kompetensiyani takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Fanlararo integratsiya talabalarning kasbiy bilim va chet tilidagi muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlab, o‘z-o‘zini tahlil qilish va rejalashtirishga xizmat qiladi. CLIL, refleksiya va kommunikativ yondashuvlar bu jarayonni samarali tashkil etishni ta’minlaydi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida chet tilini mutaxassislik fanlar bilan uzviylikda o‘qitish zaruratini

keltirib chiqardi. Mazkur yondashuv zamonaviy mutaxassislardan talab etiladigan refleksiv kompetensiyani takomillashtiradi.

Talabalarda refleksiv kompetensiya, uning tamoyillari, mezonlari va darajalari to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish, tegishli pedagogik model va metodikani yaratish hamda taklif etilayotgan modelning samaradorligini eksperimental asoslash tadqiqotning muhim vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki har qanday pedagogik model talabalarning refleksiv kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirishdan manfaatdor bo‘lgan jamiyat hamda ta’lim tizimining ijtimoiy talablariga asoslanadi. Aynan ushbu ijtimoiy talab zamonaviy texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘z kasbiy faoliyatini ongli ravishda tahlil qila oladigan, o‘z-o‘zini baholashga qodir, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtira oladigan hamda refleksiv yondashuv asosida kasbiy faoliyatidagi muammolarni hal eta oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zarurligini belgilaydi.


Mazkur model texnika oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitish jarayonida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasidan samarali foydalanish orqali talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Biz tomondan takomillashtirilgan model beshta o‘zaro bog‘liq blokni o‘z ichiga oladi: maqsadli, mazmunli-jarayonli, komponentli, diagnostik baholash va korreksion, hamda natijaviy bloklar.

Model maqsadli, mazmunli-jarayonli, komponentli, diagnostik baholash va korreksion va natijaviy bloklarning o‘zaro uzviy aloqadorligi va izchilligi asosida shakllantirilgan. Maqsadli blok modelning strategik yo‘nalishini belgilab, talabalarda refleksiv kompetensiyani takomillashtirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Mazkur maqsad ta’lim jarayonining keyingi mazmuni, shakllari, metodlari va vositalarini tanlashga metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazmunli-jarayonli blok integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan va konstruktivistik yondashuvlar asosida tashkil etilib, chet tili va kasbiy fanlar integratsiyasini CLIL, ESP va STEM elementlari orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Unda refleksiv kompetensiyani takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv mazmuni hamda kasbiy muammoli vaziyatlar asosiy mazmuniy komponent sifatida belgilanadi. Ta’limni amalga oshirish shakllari sifatida integrativ ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil va masofaviy ta’lim shakllaridan foydalaniladi. Jarayonning samaradorligini ta’minlash maqsadida muammoli vaziyat yaratish, case-study, brainstorming, refleksiv kundalik yuritish, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash, Q-sort hamda diagnostik metodlardan foydalaniladi. Shuningdek, raqamli ta’lim resurslari, learning analytics, onlayn testlar va refleksiv portfoliolar ta’lim vositalari sifatida qo‘llanadi.

Komponentli blok talabalarning refleksiv kompetensiyasining tarkibiy tuzilishini ifodalaydi. Unda motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli hamda refleksiv-kreativ komponentlar o‘zaro bog‘liq holda belgilangan. Motivatsion-qadriyatli komponent talabaning o‘z faoliyatini anglash, kasbiy rivojlanishga intilish va o‘z-o‘zini takomillashtirish motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kognitiv komponent kasbiy va chet tiliga oid bilimlar, tahliliy va mantiqiy fikrlash, muammoni anglash hamda tahlil qilish ko‘nikmalarini qamrab oladi (1-rasmga qarang).




1-rasm. Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida refleksiv kompetensiyani takomillashtirish didaktik modeli

Faoliyatli komponent mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy-kasbiy faoliyatda qo‘llashni nazarda tutadi. Refleksiv-baholovchi komponent esa faoliyat natijalarini baholash, xatolarni aniqlash, faoliyatni korreksiya qilish va uni takomillashtirish kompetensiyalarini shakllantiradi. Refleksiv-kreativ komponent o‘z faoliyati natijalarini baholash, xatolarni aniqlash va faoliyatni korreksiya qilish hamda takomillashtirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Diagnostik-baholash va korreksion blok talabalarning refleksiv kompetensiyasi shakllanganlik darajasini aniqlash, korreksiya qilish va natijalarni mezonlar asosida baholashga xizmat qiladi. Bunda kognitiv, faoliyatli, shaxsiy-refleksiv va refleksiv mezonlar asosida diagnostik baholash amalga oshiriladi. Baholash vositalari sifatida o‘z-o‘zini baholash, maqsadli loyihalash, kuzatuv va refleksiv kundalikdan foydalanish orqali tayyorlov, amaliy va yakuniy bosqichlarda baholashni nazarda tutiladi. Mazkur vositalarning kompleks qo‘llanilishi talabaning refleksiv kompetensiyasini nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy faoliyat va o‘z faoliyatini baholash qobiliyati nuqtayi nazaridan ham aniqlash imkonini beradi. Baholash jarayoni tayyorlov, amaliy va yakuniy bosqichlardan iborat bo‘lib, ular orqali talabalarning refleksiv kompetensiyasi darajasi aniqlanadi.

Modelning natijaviy blokida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv kompetensiyasi takomillashgan talaba modeli aks ettirilgan. Kutilayotgan natija talabaning o‘z faoliyatini ongli ravishda tahlil qilishi, kasbiy va ta’limiy muammolarga refleksiv yondashishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi, o‘z faoliyati natijalarini baholashi, xatolarini aniqlashi va keyingi faoliyatini korreksiyalash qobiliyatlarining rivojlanganligi bilan tavsiflanadi.

Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirib, CLIL, kommunikativ va refleksiv yondashuvlarga tayangan holda o‘quv jarayonini kasbiy mazmunga yaqinlashtiradi. Talabalarda mustaqil fikrlash, muloqot qilish, kasbiy nutqda til vositalaridan foydalanish, o‘zini tahlil qilish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Shuningdek, chet tilni o‘rgatishda integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasidan foydalanish diagnostikasi 4 ta tuzilmani o‘z ichiga oladi (2-rasmga qarang):



2-rasm. Chet tilni o‘rgatishda integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasidan foydalanish diagnostikasi

Mazkur blok diagramma samarali faoliyat yuritishi o‘zaro uzviy bog‘langan to‘rtta asosiy tuzilma - umumta’limiy tuzilma, amaliy tuzilma, rivojlantiruvchi tuzilma va takomillashtiruvchi tuzilma asosida amalga oshiriladi. Ushbu tuzilmalar o‘zaro siklik bog‘lanishda bo‘lib, talabalarning refleksiv kompetensiyasini bosqichma-bosqich takomillashtirish jarayonini ta’minlaydi.

Umumta’limiy tuzilma refleksiv kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslarini belgilashga xizmat qiladi. Mazkur tuzilma doirasida talabalarga refleksiya, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z faoliyatini baholash va kasbiy rivojlanishni rejalashtirish bo‘yicha umumiy bilimlar beriladi. Bu bosqichda chet tilini o‘qitish jarayonida refleksiv faoliyatning mazmuni, shakllari va usullari bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy tuzilma refleksiv kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan amaliy faoliyatni tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu tuzilma doirasida talabalarning kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajarishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi, refleksiv kundalik yuritishi hamda o‘z faoliyat natijalarini baholash orqali talabalarning refleksiv ko‘nikmalari shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Rivojlantiruvchi tuzilma refleksiv kompetensiyaning tarkibiy komponentlarini chuqurlashtirish va kengaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuv, o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish va takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoji rivojlantiradi. Shuningdek, refleksiv faoliyatga bo‘lgan qiziqish va ichki motivatsiya kuchaytiriladi.

Takomillashtiruvchi tuzilma refleksiv kompetensiyaning yuqori darajada shakllanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, olingan natijalarni tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda refleksiv faoliyatni yanada samarali tashkil etishni yo‘lga qo‘yishni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqich refleksiv kompetensiyani doimiy ravishda yangilash va rivojlantirish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

Mazkur tuzilmalar o‘zaro siklik bog‘langan holda faoliyat yuritib, reflekisiv kompetensiyani shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish jarayonining izchilligi hamda samaradorligini ta’minlaydi.

Ingliz tili darslarida mutaxassislik fanlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar, xususan “ Mining industry” va “Specialty equipment” kabi mavzular, kasbiy leksikani amaliyotda qo‘llashga yo‘naltiriladi. Ta’lim texnologiyasi tarkibidagi amaliy, umumta’limiy, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi tuzilmalar talabaning kasbiy til kompetensiyasini bosqichma-bosqich mustahkamlaydi.

Dissertatsiyaning **“Refleksiv kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni va tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida texnika oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitish jarayonida talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari hamda uning natijalari yoritilgan.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi – integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasya orqali talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan ishlab chiqilgan pedagogik model va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ta’lim amaliyotida sinovdan o‘tkazish, shuningdek integratsiyalashgan

ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonida ularning samaradorligi tahlil qilindi, olingan natijalar statistik va qiyosiy tahlillar bilan asoslab berildi.

Tajriba-sinov ishlari texnika yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalab o‘qitish orqali ularning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: ta’kidlovchi (2021-2022) - muammoni tashxislash, shakllantiruvchi (2022-2023) - o‘quv-uslubiy materiallarni joriy etish, nazorat (2023-2024) - natijalarni tahlil qilish.

Tajriba-sinov ishlari Navoiy NDKTU, TDTU Olmaliq filiali va Nukus DTUda olib borildi. Konchilik va metallurgiya yo‘nalishlari talabalari ishtirokida 309 nafar talabadan iborat tajriba guruhi va 241 nafar nazorat guruhi shakllantirildi. 65 nafar o‘qituvchi va 550 nafar talaba jalb qilindi.

Tadqiqot jarayonida o‘quv dasturlari tahlil qilindi, so‘rovnomalar va testlar o‘tkazildi, baholash mezonlari ishlab chiqildi. Tajriba guruhlarida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi asosida refleksiv kompetensiyaning rivojlanish darajasi aniqlanib, natijalar statistik tahlil orqali asoslab berildi.

So‘rovnoma va testlar natijasi talabalarning mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko‘rsatdi. Ularning aksariyati ingliz tilidan foydalanadi (77-82%), biroq “mutaxassislik bo‘yicha yetarli bilim yetishmasligi” asosiy muammo sifatida qayd etilgan (52%).

550 nafar talaba ishtirok etgan dastlabki testlarda umumiy to‘g‘ri javoblar 48% ni tashkil etdi. Bu holat ularning integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari bo‘yicha bilim darajasini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tajriba guruhlarida “Ingliz tilini integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi asosida kasbga yo‘naltirib o‘qitish” o‘quv qo‘llanmasi asosida o‘qitish natijasida refleksiv kompetensiya va mutaxassislik til ko‘nikmalari rivojlandi. Yakuniy testlar va baholash mezonlari natijalari tajriba guruhlarining sezilarli yutuqlarini tasdiqladi.


Statistik tahlillar asosida integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi orqali talabalarning refleksiv kompetensiyasini takomillashtirishning samaradorligi ilmiy asosda isbotlandi. Tajriba-sinov natijalarini tahlil qilishda tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar Kolmogorov-Smirnov mezoni asosida baholandi. Talabalarning refleksiv kompetensiyasini aniqlash uchun “qoniqarsiz” dan “a’lo” gacha bo‘lgan to‘rtta darajadagi ko‘rsatkichlar (1-5 ballik tizim) asosida testlar ishlab chiqildi.

